

**PIRIMQUL QODIROV ASARLARIDA FRAZELOGIZMLARNING
QO‘LLANILISHI- ("MEROS" QISSASI MISOLIDA)**

Muxiddinova Durdona Odilovna

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati
instituti talabasi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 27.10.2025

Revised: 28.10.2025

Accepted: 29.10.2025

Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning frazeologizmlardan foydalanish mahorati ochib berilgan. "Meros" qissasi misol sifatida tanlandi.

KALIT SO‘ZLAR:

*frazeologizm, qissa,
badiiy so‘z, paxtakor,
muallif, yaxlitlik.*

KIRISH

Xalq madaniy-tarixiy tajribasini shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini o‘zida aks ettirgan, asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og‘zaki nutqda badiiy adabiyotda hamda publisistikada o‘tkir ta’sirchan tasviriylar vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslangan holda qisman o‘zgartiradilar. Jumladan, Pirimqul Qodirovning "Meros" qissasida iboralardan foydalanish usuli yaqqol ko‘zga tashlangan. "Meros" qissasi bosh qahramoni Yolqin Otajonov lafzi halol, jonkuyar, fidoyi paxtakor-mexanizator. Uning fe’l-atvorini, hayot maslagini muallif sinchi nigohi bilan chizib beradi. Quyida "Meros" qissasining birinchi, ikkinchi va uchinchi boblarida keltirilgan frazemalarni tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Judolik esimga tushadi-yu: "Akam tirik ekan, tirik!" -deb, uni mahkam quchoqlab olaman. Men endi uni hech qo'ldan chiqarmayman", - deb o'ylayman. Lekin hayajon zo'rlik qiladi, yuragim taka-puka bo'lib, uyg'onib ketaman.

Yuragi taka-puka bo'lmoq-ruhan notinch, bezovta.

Men otamni eslolmasam ham, uning qishlog'imizga birinchi bo'lib Traktor minib kelganini eshitganman. Bu hodisa kolxozlar endi tuzilayotgan, boy-mushtumzo'rlarning ko'ziga qon to'lgan paytlarda yuz beradi.

Ko'zi qonga to'lmoq-qattiq jahli chiqmoq, g'azabi qo'zg'amoq.

Otamdan qoraxat kelganda Yolqin akam juda qattiq kuyungan, uning traktorini ko'rganda ko'ngli ezilib, ko'ziga yosh olar edi. Uning ham traktorchilarga qarashib, chelakda goh kerosin, goh suv tashirdi.

Ko'ngli ezilmoq-ruhan azoblanmoq.

Suyuq go'ja ham har kuni bo'lavergandan keyin me'daga tegadi. Bir kun men quyuqroq bo'tqa pishirmoqchi bo'ldim. Kelida tariq tuydim.

Me'daga tegmoq-yoqmay qoldi, tanasi qabul qilmay qo'ydi.

- Bizning ishimizga temir ham to'zim bermaydi, - dedi.

- Men sizlarni katta qilgunicha mana shunaqa ketmondan besh-oltitasining boshiga yetdim. Bolalarim, men hammasini hisoblab yuribman.

Boshiga yetmoq-halok qilmoq

- Aya, - dedi, - men o'zim ham sizning og'iringizni yengil qilolmayotganimdan ezilib yuribman.

- Mening gapimni o'zingga olma, bolam. Sen ham kun-u tun tinmaysan. Otda kultivatsiya qilingan joyning chopig'i oson bo'larkan. Sen jonimizga oro kirib yuribsan.

Joniga oro kirmoq- 1) bir o'limdan qutqarib qolmoq; 2) og'ir ahvoldan qutqarmoq.

Otalari ham texnikaga juda ishqiboz edi. "Agar texnikaga muncha berilmaganda, o'sha tankni minmasmidi? Cho'loq bo'lsa ham, bir qo'li yo'q bo'lsa ham, tirik qaytsa, mayli edi! Shu bolalariga bosh bo'lar edi!

Bosh bo'lmoq- boshqarmoq, rahbarlik qilmoq.

Jobir Toshbekovning ko'ngli buzildi,, shekilli, yiltillab ketgan ko'zini yerga tikib, "qilt" etib yutindi. So'ng o'rnidan turib:

-Mayli, xola, ona-bola o'zlaring yana o'ylab ko'ringlar, - dedi-da, xayrlashib chiqib ketdi.

Ko'ngli buzilmoq-ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetmoq.

Yolqin akam mashinasini egatga burib kirgandan keyin uning shovqini ikki barobar kuchayib ketdi. Men boya yo'ldan eshitganim faqat motorning tovushi ekan. Terim agregati ishga tushirilgandan keyin shpindellar, nasoslar, ularni motorga bog'lab turgan tasmalar-u g'ildiraklar hammasi baravar ishlasa, quloqni qomatga keltirar ekan.

Quloqni qomatga keltirmoq-juda baland.

Onam uzilgan ko'saklarni qo'liga olib:

-Voy o'lay, uvoliga qolmaylik tag'in! - deb qo'ydi.

Farmon brigadir to'kilgan paxtani yerdan changallab olib raisga ko'rsatdi:

-Abdumalik aka, bu qanaqasi bo'ldi? Paxtaning har bir tolasini odamlar nonday ko'ziga surtadi-ku! Davlat: "Bir grammni ham nobud qilma!"- deb qulog'imizga har kuni quyib turgani bekor ketadimi?

Ko'ziga surtmoq-ortiq darajada qadrlamoq, e'zozlamoq.

Albatta, o'sha paytdagi mashinaning o'zida ham kamchiliklar bo'lgan. Lekin yangilikdan cho'chiydiganlar arzimagan kamchilikni dastak qilib olmasligi uchun mexanik bilan Yolqin akam odamlarga mashinaning faqat yaxshi tomonlarini ko'rsatishga tirishar edi.

Dastak qilib olmoq- bahona qilmoq, sabab qilib tanlamoq.

Akam shu yerga kelib, mushkul ishlarni mashinada qila boshlagandan beri onamning yuzlari to'lishib, rangi kirib bormoqda edi. Buni qo'shni ayollar ham sezishar:

-Sharofat opa, ishingiz yengillashib, joningiz kirib qoldi-ya! - deyishardi.

-Asta aytasizmi! Har tili to'rt-besh tonna paxta terguncha belimda bel qolmas edi. Uch-to'rt oygacha o'zimga kelolmay yurar edim.

Joni kirmoq- 1) tetiklashmoq; 2) hayotga qaytmoq, tirilmoq.

Belida bel qolmaslik- kuchdan qolish, qattiq charchamoq.

XULOSA

Yuqorida asarning ayrim boblaridagi frazeologik birliklar izohlandi. Ammo asarning boshidan oxiriga qadar tahlil qilinganda, bunday birliklarning soni juda ko'p. Ushbu tahlillar Pirimqul Qodirovning frazeologik mahorati qay darajada yuksakligiga dalildir. Adib asarni yozishda badiiy so'z qudrati, individuallik va yaxlitlikdan juda unumli foydalana olgan.

Adabiyotlar:

1. Qodirov P. Meros. -Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat. 2021.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi. 1978.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2020.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2020.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2020.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-tom. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2020.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-tom. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2020.

